

O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

Abdusattorov Sarvar Shokirovich

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi,
“International school of finance technology and science” Instituti “Menejment” kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarining 2000-2023-yillar bo‘yicha ma‘lumotlari o‘zaro taqqoslanib, sog‘liqni saqlash muassasalarining axborot almashinuv jarayonlariga axborot texnologiyalarni qo‘llash asosida muassasa faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘rta muddatli (2024-2030-yillar) prognoz ko‘rsatkichlari tuzilgan. Amalga oshirilgan tahlillar sog‘liqni saqlash tizimida muhim hisoblangan ko‘rsatkichlar, jumladan shifoxonalarda mavjud o‘rinlar soni, bir shifokorga to‘g‘ri keladigan aholi soni, tizimda faoliyat yuritayotgan shifokorlar soni bo‘yicha tahlillar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, axborot, prognoz, tibbiyot muassasasi, shifokor, statsionar, ambulatoriya.

Аннотация

Основные показатели, описывающие систему здравоохранения Республики Узбекистан за период с 2000 по 2023 годы, были сопоставлены, и на основе внедрения цифровых технологий в процессы обмена информацией в учреждениях здравоохранения был составлен прогноз показателей для среднесрочной перспективы (2024–2030 гг.), направленный на повышение эффективности деятельности учреждений. Проведенный анализ охватывает важнейшие показатели системы здравоохранения, включая количество коек в больницах, численность населения, приходящуюся на одного врача, а также количество врачей, работающих в системе.

Ключевые слова: медицина, информация, прогноз, медицинское учреждение, врач, больница, амбулатория.

Abstract

The key indicators describing the healthcare system of the Republic of Uzbekistan for the period from 2000 to 2023 have been compared, and based on the implementation of digital technologies in the information exchange processes within healthcare institutions, a forecast of indicators for the medium-term period (2024–2030) has been developed, aimed at improving the efficiency of institutional operations. The conducted analysis covers the most important indicators of the healthcare system, including the number of hospital beds, the population per doctor ratio, as well as the number of doctors working within the system.

Keywords: medicine, information, forecast, medical institution, doctor, hospital, outpatient clinic.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimining 2000-2023-yillarda rivojlanish muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlari amalga oshirilgan tahlillar natijalari bizga tibbiyot muassasalarida ham, muassasalar o‘rtasida ham tibbiy ma‘lumotlarni yaratish, shakllantirish, to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va uzatish jarayonlarida axborot texnologiyalarni joriy etish va qo‘llash zaruriyatini belgilab berdi.

O‘z navbatida tadqiqotlarimiz davomida tibbiyot muassasalari ma‘lumotlar harakatlanishi bo‘yicha algoritm-modeli asosida ishlab chiqilgan “Tibbiyot muassasalarida tibbiy hisob hujjatlarini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimi dasturiy mahsuloti” – axborot texnologiyasining tibbiyot muassasalarida amalga oshirilgan aprobatsiya jarayonlari axborot texnologiyalarning joriy etilishi tibbiyot muassasalarida tibbiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda sog‘liqni saqlashga sarflangan mablag‘ning yarmidan ko‘pi surunkali kasalliklarni davolashga sarflanadi. Qo‘shma Shtatlarda har yili sog‘liqni saqlashga sarflangan 3 trillion dollarning 84 foizi surunkali kasalliklarni davolashga ketadi. Bundan tashqari, bemorlarning 5 foizi sog‘liqni saqlash tizimi surunkali kasalliklarga har yili sarflaydigan mablag‘ning 50 foizini tashkil qiladi¹.

Zamonaviy ilm-fandagi taraqqiyot tibbiyot imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirish, ko‘plab kasalliklarni klinikadan oldingi diagnostika qilish imkonini beradi. Profilaktika tibbiyotida zamonaviy skrining texnologiyalaridan faol va ommaviy foydalanish, bemorni o‘z salomatligini asrashga yanada chuqurroq jalb etish aholi o‘rtasida kasallanishni sezilarli darajada kamaytirish va aholining umrini uzaytirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Maqolada tahlil qilingan statistik ma‘lumotlar asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi ma‘lumotlari hisoblanadi. Shuningdek, A.Uralovning (2020) “The Estimation of the Covid-19 Pandemic on the Macroeconomic indicators suggestions for Uzbekistan” nomli maqolasida pandemiya davrining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri va makroiqtisodiy omillar haqida fikr bildirilgan². K.I.Kostyuk. (2020) “Информационные технологии в науке, управлении, социальной сфере и медицине” maqolasida tibbiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi bo‘yicha fikrlar tahlil qilingan³. O.Korobkova, (2020) tomonidan chop etilgan

¹ Lein E.K. (2013) The Two Most Important Numbers in American Health Care. Washington Post, Sept. 19. 2013

² Uralov A., Uralov S. The Estimation of the Covid-19 Pandemic on the Macroeconomic indicators suggestions for Uzbekistan// Asian Journal of Multidimensional Research, Vol 9, Issue 6, June, 2020: 121-128, [Elektron resurs] / <https://www.tarj.in/Ajmr-Vol-9-Issue-6-june-2020.html>

³ К.И. Костюк Роль информационных технологий в медицине. Сборник научных трудов II международной конференции

“Informatsionnaya bezopasnost uslug sferы zdravooxraneniya v usloviyax sifrovoy ekonomiki” deb nomlangan maqolasida katta ma’lumotlarning saqlanishi haqida fikr bildirilgan¹. B.Mahkamovning (2023) “Raqamli iqtisodiyot sektorini rivojlantirishda mahalliy xususiyatlar asosida tadqiq qilish” mavzusidagi maqolasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sektori rivojlanishi, elektron tijorat, onlayn savdo yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan ishlar va unga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumotlar keltirilgan². B.Mahkamov, G.Ismoilova va boshqalarning (2023) “Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati” mavzusidagi maqolada mualliflar tomonidan elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish va uni takomillashtirish uchun olib boriladigan³ ishlar tahlil qilingan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada 2000-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlar olinib, sog‘liqni saqlash muassasalarining axborot almashinuv jarayonlariga raqamli axborot texnologiyalarni qo‘llash asosida muassasa faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘rta muddatli (2025-2030 yy) prognoz ko‘rsatkichlar tuzilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sog‘liqni saqlash tizimida axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi tibbiyotda yangi davr keltirib chiqaradi. Portativ foydalanuvchi diagnostika gadjetlarining paydo bo‘lishi odamlarning hayot sifatini soddalashtiradi va yaxshilaydi. Smartfon yordamida inson tanasiga ulangan simsiz datchiklar fiziologik ma’lumotlarni o‘qiydi: qon bosimi, yurak urish tezligi, yurak qisqarishi tozaligidagi o‘zgarishlar, tana harorati, ko‘z bosimi, qon shakar darajasi, intrakranial bosim va boshqa ko‘plab ko‘rsatkichlar shular jumlasidandir. Shunday qilib, smartfonlar jismoniy tekshiruvlar uchun vositaga aylanmoqda. Mobil telefonlarni interaktiv 3D skanerlarga aylantirish sezilarli yutuqlarga erishdi. Smartfonni kuchli raqamli mikroskopga aylantirish esa bir qator yuqumli kasalliklarni aniqlash imkonini beradi. Raqamli infratuzilma bilan birgalikda bu virtual shifokor tashriflari uchun asos yaratadi⁴.

Zamonaviy ma’lumotlardan foydalanish yangi texnologiyalar neonatal tibbiyotda inqilobiy voqea bo‘ldi. Bugungi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlarida neonatal butun genom ketma-ketligi 24 soatdan kam vaqt ichida amalga oshiriladi. Bu nafaqat yangi tug‘ilgan chaqaloq haqida hozir qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni taqdim etadi, balki uning butun hayoti davomida muhim manba bo‘lib

“Информационные технологии в науке, управлении, социальной сфере и медицине”, Томск, 2015. [Электронный ресурс] /режим доступа: <https://core.ac.uk/download/pdf/53081128.pdf>

1 О. К. Коробкова “Информационная безопасность услуг сферы здравоохранения в условиях цифровой экономики”, проблемные вопросы Журнал: Экономика и предпринимательство. – 2020. – № 8 (121).

2 Б.Махкамов “Рақамли иқтисодий секторини ривожлантиришда маҳаллий хусусиятлар асосида тадқиқ қилиш” “Ал-Фарғоний авлодлари” электрон илмий журнал. 2023 №2. <https://al-fargoniy.uz/index.php/journal/article/view/26>

3 Б.Махкамов, Г.Исмоилова “Электрон тижорат инфратузилмаси ва унинг геoiqtisodiy ahamiyati. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 974-983. 2023 й.

4 Э.Тополь Будущее медицины. Ваше здоровье в ваших руках : пер. с англ. Москва, 2016 й.

xizmat qiladi¹. Raqamli tibbiyot sohasidagi yutuqlarni joriy etish va ulardan foydalanish masalasi O‘zbekiston uchun juda dolzarbdir, chunki bolalar salomatligi mamlakat uchun juda muhimdir.

Sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik o‘zgarishlarga moslashish jarayonlarini shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

Raqamli sog‘liqni saqlash — bu sog‘liqni saqlash bozorining shaffofligini oshirish va shunga mos ravishda xarajatlar va xavflarni kamaytirish, xususiyy tibbiyot muassasalari uchun daromadlarni oshirish vositasi bo‘lib, buning natijasida bemorlar raqobatbardosh takliflar va qulay xizmatlardan foydalanishadi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi xarajatlarni optimallashtirish usullaridan biri bu kasallikni erta bosqichda aniqlashga yordam beradigan qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini joriy qilishdir.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash sohasi asosiy ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlil jadvali²

T/r	Sog‘liqni saqlash sohasi ko‘rsatkichlari	O‘lchov birligi	2000	2023	O‘shish surati (miqdord a)	O‘shish surati (foizda)
1	Mamlakat aholisi soni	ming kishi	24813,1	36799,8	11986,7	148,1
2	Davolash muassasalari soni	dona	6009	9443	3434,0	157,1
	Jumladan:					
3	Shifoxona muassasalari soni	dona	1162	1432	270,0	123,2
4	Ambulatoriya — poliklinika muassasalari soni	dona	4847	8011	3164,0	165,3
5	Shifoxona o‘rinlari soni, jami	ming o‘rin	138,6	172,6	34,0	124,5
6	Shu ko‘rsatkich 10 000 aholiga	o‘rin	55,9	46,9	9,0	83,9
7	Statsionarlarda bir yilda davolangan bemorlar soni, jami	ming kishi	3514,4	6208,7	2694,3	176,7
8	Bir shifoxona o‘rniga to‘g‘ri keladigan aholi soni	kishi	179	213,2	34,2	119,1
9	Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati, bir smenada qatnovlar soni, jami	ming kishi	391,5	621,8	230,3	158,8
10	Barcha mutaxassislikdagi shifokorlarning soni, jami	ming kishi	81,5	105,7	24,2	129,7
11	Bir shifokorga to‘g‘ri keladigan aholi soni:	kishi	304	348	44,2	114,5
12	O‘rta malakali tibbiyot xodimlari soni, jami	ming kishi	259,7	373,7	114,0	143,9

Tahlillarimiz natijasida mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlarining 2025-2030-yillarga bo‘lgan istiqbol ko‘rsatkichlarini

¹ Gardy J.L. et al. (2011) Whole - Genome Sequencing and Social - Network Analsis of a Tuberculosis Outbreak. The New England Jornal of Medicine, 364, rr. 730-739.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (www.stat.uz) va O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi (www.ssv.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

aniqlashga hamda bu bilan tizimdagi mavjud tibbiyot muassasalari faoliyatiga axborot texnologiyalarni joriy zaruriyatini asoslashga harakat qilamiz.

Mamlakatimiz sogʻliqni saqlash tizimi muhim koʻrsatkichlaridan hisoblangan barcha mutaxassislikdagi malakali shifokorlarning soni, malakali shifokorlarning oʻn ming aholiga toʻgʻri keladigan soni, bir shifokorga toʻgʻri keladigan aholi soni, shifoxonalar oʻrinlari soni, bir shifoxona oʻrniga toʻgʻri keladigan aholi soni hamda statsionarlarda davolanadigan bemorlarning jami soni koʻrsatkichlarining 2024-2030-yillarga boʻlgan istiqboldagi miqdorlarini aniqladik. Quyida keltirilgan 2-jadvalda mamlakatimiz sogʻliqni saqlash tizimining 2025-yil va 2030-yilga boʻlgan istiqbolli koʻrsatkichlarining taqqoslama tahlillari keltirilgan.

Keltirilgan maʼlumotlarni tahlil qilish natijasida aksariyat koʻrsatkichlar boʻyicha oʻsish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, 2030-yilga kelib sogʻliqni saqlash sohasida faoliyat yurituvchi malakali shifokorlar soni 108,4 foizga oshib, 114,7 ming nafarga yetishi kutilmoqda. Biroq, bir shifokorga toʻgʻri keladigan bemorlar soni 2023-yilda 348 nafarni tashkil etgan boʻlsa, 2030-yilda bu koʻrsatkich taxminan 363 bemorga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu oʻz navbatida sogʻliqni saqlash sohasida mehnat qilayotgan malakali shifokorlar soni dinamikasining aholi demografik oʻsish dinamikasidan ortda qolayotganligi bilan tavsiflanadi.

2-jadval


Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash sohasi muhim koʻrsatkichlarining 2030-yilga boʻlgan istiqboli¹

T/r	Koʻrsatkichlar	Oʻlchov birligi	Yillar		2030-yilda 2023-yilga nisbatan, %
			2023	2030	
1	Aholi soni	ming kishi	36 799,8	41 476,9	112,7
2	Barcha mutaxassislikdagi malakali shifokorlar soni	ming kishi	105,7	114,7	108,4
3	Bir shifokorga toʻgʻri keladigan aholi soni	kishi	348	363	104,4
4	Shifoxona oʻrinlari soni	ming oʻrin	172,6	185,25	107,3
5	Bir shifoxona oʻrniga toʻgʻri keladigan aholi soni	kishi	213	226	106,0
6	Statsionarlarda davolanadigan bemorlarning jami soni	ming kishi	6208,7	7422,35	119,5

Mamlakat aholisining tibbiy muassasalar statsionarlarida davolanish holatlarini tavsiflovchi koʻrsatkichlar tahlil qilinganda, soʻnggi olti yilda yaratilishi kutilayotgan shifoxonalarda statsionar oʻrinlar soni 107,3 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Natijada, 2030-yilga borib ushbu koʻrsatkich 185,3 ming oʻringa yetishi kutilmoqda. Biroq, ushbu koʻrsatkich mamlakatimiz aholisining tabiiy demografik oʻsish surʼatidan ortda qolmoqda. Shuningdek, bir shifoxona oʻrniga toʻgʻri keladigan aholi sonining

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

106 foizga o‘shishi va statsionarlarda davolanishi mumkin bo‘lgan bemorlarning jami sonining 119,5 foizga oshishi ushbu o‘shish istiqboliga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.



1-rasm. 2030-yilda sog‘liqni saqlash sohasi muhim ko‘rsatkichlarining 2023-yilga nisbatan o‘shish istiqboli (foizda)¹

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz sog‘liqni saqlash sohasida keltirib o‘tilgan, 2030-yilga kelib mavjud bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan muammolarni oldini olishning muhim yo‘nalishlaridan biri sohada mavjud tibbiyot muassasalari faoliyatida tibbiy ma‘lumotlarni yaratish, shakllantirish, to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va uzatish jarayonlarida axborot texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta‘kidlab o‘tish o‘rinliki, yuqorida keltirib o‘tilganidek, tadqiqotlar natijasida shakllantirilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni kichik bir tibbiyot muassasalari faoliyatida joriy etilishi muassasalar faoliyatida tibbiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy samaraga erishish imkonini berdi.

Tibbiyot muassasalari faoliyatida tibbiy ma‘lumotlarni yaratish, shakllantirish, to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va uzatish jarayonlarida axborot texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni Toshkent shahar Yunusobod tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 64-sonli oilaviy poliklinikasi faoliyatiga joriy etilishi 2024-yilda tibbiy samara – poliklinikada bir kunda tibbiy xizmat ko‘rsatilayotgan bemorlar sonini (hajmini) 30,2 foizga (95 bemorga) oshirishga erishildi. Sog‘liqni saqlash muassasasi faoliyatida erishilgan tibbiy va ijtimoiy samara natijasida 2024-yil davomida 2023-yilga nisbatan qo‘shimcha ravishda 28 658 bemorga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish rejalashtirilgan.

¹ Tahlil natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan: I — aholi demografik o‘shish darajasi, II — malakali shifokorlar soni, III — bir shifokorga to‘g‘ri keladigan aholi soni, IV — shifoxonalarda statsionar o‘rinlar soni, V — bir shifoxona o‘rniga to‘g‘ri keladigan aholi soni, VI — statsionarlarda davolanishi mumkin bo‘ladigan bemorlarning soni.

O‘z navbatida tibbiyot muassasalari faoliyatiga axborot texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan “Baxtli hayot” tibbiy diagnostika markazi xususiy ambulatoriya-poliklinikasi faoliyatiga joriy etilishi 2024-yil oktyabr-dekabr oylarida tibbiy samara – poliklinikada bir kunda tibbiy xizmat ko‘rsatilayotgan bemorlar o‘rtacha sonini (hajmini) 33,6 foizga (47 bemorga) oshirishga erishilib iqtisodiy samara — aholiga pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan o‘rtacha bir kunlik tushum miqdorini 5 812,0 ming so‘mga oshirish imkonini berdi. Sog‘liqni saqlash muassasasi faoliyatida erishilgan tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy samara natijasida 2024-yil davomida 2023-yilga nisbatan qo‘shimcha ravishda 14 133 bemorga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish va 1 760 982,0 ming so‘mga oshirish rejalashtirilgan.

Mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimi muhim ko‘rsatkichlarining 2024-yildan 2030-yilgacha o‘zgarish istiqboli miqdorlarining tahlili natijalari hamda Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan davlat va xususiy tibbiyot muassasalari tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni joriy etish natijalari mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini barqaror darajada rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha xulosa hamda mavjud barcha tibbiyot muassasalari faoliyatiga axborot texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish bo‘yicha xulosa va taklif va tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi.

Hukumatimiz tomonidan respublika sog‘liqni saqlash tizimidagi mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha tibbiyot muassasalari uchun yuqori sur‘atlarda malakali shifokorlar tayyorlash ta‘minlanishi lozim, zeroki ushbu kunda sohani shifokorlar bilan ta‘minlanganlik darajasi mamlakatimiz aholisi demografik o‘shish sur‘atlaridan ortda qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi 23 yil davomida mavjud statistik ma‘lumotlar o‘rganilib tahlil qilinib, shifoxonalarda mavjud o‘rinlar sonining o‘shish darajasi aholi tabiiy o‘shish darajasidan ortda qolayotganligini e‘tiborga olgan aholiga statsionar sharoitlarda davolanish imkonini yaratish maqsadida qo‘shimcha ravishda statsionar shifoxonalar barpo etish zarur.

Bu holatlar o‘z navbatida tibbiyot sohasiga yirik miqdorda investitsiya loyihalari joriy etilishini hamda malakali shifokorlar ta‘lim hamda tajriba darajasiga ega bo‘lishligi uchun vaqt zaruriyatini taqozo etadi.

Ta‘kidlab o‘tish lozimki, kelajakda malakali shifokorlar bilan ta‘minlanganlik darajasini pasayishi hamda shifoxonalarda statsionar davolash o‘rinlari yetishmasligi muammolarini hal etish uchun sog‘liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalari faoliyatiga axborot texnologiyalarni keng joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha axborot texnologiyalar asosida ambulator-poliklinika tizimida davolash unumdorligini oshirish hamda statsionar davolash davomiyligini qisqartirish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, sog‘liqni saqlash tizimiga axborot texnologiyalarni joriy etish birinchi navbatda bevosita aholi salomatligini saqlashda kasalliklarni boshlang‘ich davrida profilaktika qilish yoki operativ davolash imkoniga bo‘lgan

birlamchi tibbiyot muassasalari oilaviy poliklinikalar hamda diagnostika davolash muassasalari faoliyatiga joriy etilishi lozim. Bu o‘z navbatida kasalliklarni boshlang‘ich davrida tezkor tibbiy qaror qabul qilish, davolash jarayonlarini amalga oshirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bilan aholi sog‘ligini ta‘minlashga zamin yaratadi.

Ikkinchi bosqichda barcha turdagi statsionar davolash muassasalari faoliyatiga ham axborot texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu o‘z navbatida muassasa ichki axborot aylanish tezligini oshirib davolash borasida tezkor tibbiy qarorlar qabul qilish, davolash jarayonlarini amalga oshirish va buning asosida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Keyingi bosqichda tizimdagi tibbiyot muassasalarda mavjud axborot texnologiyalarni bir-biriga moslashtirish hamda uyg‘unlashtirishni ta‘minlash lozim bo‘ladi. Bu o‘z navbatida birlamchi bosqichda tibbiy muolajalar qanday samara berganligi yoki qo‘shimcha ravishda navbatdagi bosqichda axborot texnologiyalar asosida oilaviy poliklinika, diagnostika davolash yoki statsionar davolash muassasalaridan ma‘lumotlarni olgan holda laboratoriya-diagnostika jarayonlari uchun qo‘shimcha mablag‘ va vaqt sarflamasdan tibbiy qaror qabul qilish asosida davolash samaradorligi va sifatini ta‘minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Саматов Ф.А. Инновациивий техника ва технологиялар самарадорлиги ва унда техник-иктисодий тадқиқотларнинг ривожлантририлишиши.//Иқтисодиёт ва таълим №1.2015-48-52 б.

3. Uralov A., Uralov S. The Estimation of the Covid-19 Pandemic on the Macroeconomic indicators suggestions for Uzbekistan// Asian Journal of Multidimensional Research, Vol 9, Issue 6, June , 2020: 121-128, [Электрон ресурс] /Режим доступа: <https://www.tarj.in/Ajmr-Vol-9-Issue-6-june-2020.html>

4. Полянская С.В. Совершенствование управления инновационной деятельностью учреждений здравоохранения: автореф. дисс. ... канд. экон. наук /. – Саратов. – 2012. – 23 с.

5. Lein E.K. (2013) The Two Most Important Numbers in American Health Care. Washington Post, Sept. 19. 2013

6. Тополь Э. Будущее медицины. Ваше здоровье в ваших руках : пер. с англ. Москва, 2016.

7. Gardy J.L. et al. (2011) Whole — Genome Sequencing and Social — Network Analsis of a Tuberculosis Outbreak. The New England Jornal of Medicine, 364, rr. 730-739.

8. eHealth Conversations Using Information Management, Dialogue, and Knowledge to Move Toward Universal Access to Health. Washington, PAHO, 2016, 476, [Elektron resurs] /Rejim dostupa: <https://iris.paho.org/handle/10665.2>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb sayti (www.stat.uz)

10. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy veb sayti (www.ssv.uz)



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**